



## DAVLAT IQTISODIYOT XAVFSIZLIGI DARAJASINI INTEGRAL BAHOLASHGA METODOLIK YONDASHUVLAR

**Karimov Javlon Ko‘ziyevich**

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, “Oliy va amaliy matematika” kafedrası dotsenti, PhD.*

**Email:** [jkarimov1976@gmail.com](mailto:jkarimov1976@gmail.com)

**DOI:** [https://doi.org/10.55439/EIT/vol13\\_iss6/759](https://doi.org/10.55439/EIT/vol13_iss6/759)

### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada davlat iqtisodiy xavfsizligi darajasini baholash masalalari ko‘rib chiqilib, integral ko‘rsatkichlar asosida metodologik yondashuv ishlab chiqilgan. Iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi makroiqtisodiy barqarorlik, moliyaviy mustaqillik, investitsiya faolligi, tashqi qarz barqarorligi va ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlarning uyg‘unligi orqali tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada iqtisodiy xavfsizlikni baholash uchun indikatorlar tizimi (YAIM o‘shisi, inflyatsiya darajasi, to‘lov balansining holati, bandlik ko‘rsatkichlari, aholi real daromadlari, tashqi qarzning YAIMdagi ulushi va boshqalar) asosida integral indeks shakllantirish mexanizmi taklif etiladi. Metodologiya tarkibida indikatorlarni normallashtirish, ularning og‘irlik koeffitsiyentlarini aniqlash, so‘ngra umumlashtirilgan integral bahoni hisoblash bosqichlari bayon qilingan. Olingan natijalar iqtisodiy xavfsizlik darajasini monitoring qilish, milliy xavfsizlik strategiyasini ishlab chiqish va davlat siyosatini samarali rejalashtirishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** Davlat iqtisodiy xavfsizligi, integral baholash, indikatorlar tizimi, metodologik yondashuv, makroiqtisodiy barqarorlik, tashqi qarz, inflyatsiya, bandlik, milliy xavfsizlik, strategik rejalashtirish.

### МЕТОДИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К КОМПЛЕКСНОЙ ОЦЕНКЕ УРОВНЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ГОСУДАРСТВА

### **Аннотация**

В данной статье рассматриваются вопросы оценки уровня экономической безопасности государства и разрабатывается методологический подход на основе интегральных показателей. Понятие экономической безопасности анализируется через призму макроэкономической стабильности, финансовой независимости, инвестиционной активности, устойчивости внешнего долга и согласованности социально-экономических индикаторов. Кроме того, предлагается механизм формирования интегрального индекса экономической безопасности на основе системы индикаторов (рост ВВП, уровень инфляции, состояние платежного баланса, показатели занятости, реальные доходы населения, доля внешнего долга в ВВП и др.). Методология включает нормализацию показателей, определение весовых коэффициентов и расчет сводной интегральной оценки. Полученные результаты имеют практическое значение для мониторинга уровня экономической безопасности, разработки стратегии национальной безопасности и эффективного планирования государственной политики.

**Ключевые слова:** Государственная экономическая безопасность, интегральная оценка, система индикаторов, методологический подход, макроэкономическая стабильность, внешний долг, инфляция, занятость, национальная безопасность, стратегическое планирование.

## **METHODOLOGICAL APPROACHES TO AN INTEGRATED ASSESSMENT OF THE LEVEL OF STATE ECONOMIC SECURITY**

### **Abstract**

This article examines the assessment of the state's economic security level and develops a methodological approach based on integral indicators. The concept of economic security is analyzed through macroeconomic stability, financial independence, investment activity, external debt sustainability, and the coherence of socio-economic indicators. Furthermore, the paper proposes a mechanism for constructing an integral index of economic security, using a system of indicators such as GDP growth, inflation rate, balance of payments position, employment levels, real household incomes, and the share of external debt in GDP. The methodology includes indicator normalization, determination of weighting coefficients, and calculation of a composite integral score. The results provide practical significance for monitoring the level of economic security, developing national security strategies, and enhancing the effectiveness of government policy planning.

**Keywords:** State economic security, integral assessment, system of indicators, methodological approach, macroeconomic stability, external debt, inflation, employment, national security, strategic planning.

### **Kirish**

So'nggi yillarda davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi jahon va mintaqaviy miqyosda eng dolzarb muammolardan biri sifatida ko'rilmoqda. Xususan, globallashuv, xalqaro moliyaviy inqirozlar, savdo nizolari, geosiyosiy qarama-qarshiliklar hamda pandemiya oqibatlarini davlatlarning iqtisodiy barqarorligiga jiddiy xavf tug'dirmoqda [1]. BMTning Rivojlanish dasturi (UNDP), Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan e'lon qilingan so'nggi hisobotlarda makroiqtisodiy barqarorlik, tashqi qarz barqarorligi, aholi bandligi va inflyatsiyani jilovlash ko'rsatkichlari iqtisodiy xavfsizlikni baholashning asosiy indikatorlari sifatida qayd etilgan [2].

O'zbekiston Respublikasi ham ushbu global tendensiyalardan chetda emas. Mamlakatda so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar chuqurlashmoqda, investitsiya muhiti yaxshilanmoqda, biroq tashqi qarz hajmining ortishi, inflyatsiya bosimi va ayrim hududlarda ishlab chiqarish samaradorligining pastligi milliy iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi omillar sifatida maydonga chiqmoqda [3]. Shu sababli, davlat iqtisodiy xavfsizligini muntazam monitoring qilish, indikatorlar asosida integral baholash tizimini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi.

Xalqaro amaliyotda integral baholash yondashuvlari keng qo'llanilmoqda. Masalan, XVJning "Financial Stability Report" hujjatida makroprudensial indikatorlar asosida moliyaviy barqarorlik darajasi aniqlanadi [4], OECD esa o'z hisobotlarida davlat qarzi, inflyatsiya va iqtisodiy o'sish sur'atlari o'rtasidagi mutanosiblikni xavfsizlik mezoni sifatida belgilaydi [5]. UNDP esa "Human Development Report" orqali ijtimoiy xavfsizlik ko'rsatkichlarini ham iqtisodiy xavfsizlik bilan integratsiyalashgan holda baholash zarurligini ta'kidlaydi [6].

O‘zbekiston miqyosida ham bir qator huquqiy hujjatlar ushbu yo‘nalishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, Prezidentning 2017-yil 7-fevraldagi PF–4947-son Farmoni bilan qabul qilingan “2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”da iqtisodiyotning barqarorligini ta‘minlash, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni optimallashtirish va hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [7]. Shuningdek, 2022-yilda qabul qilingan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” (PF–60-son) hujjatida iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash uchun tashqi qarzdin oqilona foydalanish, inflyatsiyani pasaytirish va xalqaro reytinglarda mamlakat o‘rnini mustahkamlash vazifalari ilgari surilgan [8].

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholash faqat alohida indikatorlar emas, balki ularning kompleks integratsiyasi orqali amalga oshirilishi zarur. Shu sababli maqolada davlat iqtisodiy xavfsizligi darajasini integral baholashning metodologik yondashuvlari ishlab chiqiladi, u orqali iqtisodiy barqarorlikni muntazam kuzatish, muammolarni erta aniqlash va siyosiy qarorlar uchun ilmiy asos yaratish imkoniyati yaratiladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

Davlat iqtisodiy xavfsizligini baholash va uning integral ko‘rsatkichlar asosida o‘lchash masalalari so‘nggi yillarda xalqaro va milliy ilmiy doiralarda keng muhokama qilinmoqda. Xalqaro tajribada iqtisodiy xavfsizlik tushunchasi avvalo makroiqtisodiy barqarorlik, tashqi qarzning boshqariluvchanligi, moliyaviy tizimning barqarorligi va aholi farovonligining uzluksiz o‘ssishi bilan bog‘lanadi [9].

Masalan, Xalqaro valyuta jamg‘armasi (XVJ) o‘zining muntazam hisobotlarida iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashning asosiy ko‘rsatkichi sifatida yalpi ichki mahsulot o‘ssishi, inflyatsiya darajasi va tashqi qarz hajmining optimalligi mezonlarini alohida ta‘kidlab keladi [10]. Jahon banki ham “Global Economic Prospects” hisobotida rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqtisodiy xavfsizlikning muhim omillaridan biri sifatida tashqi qarz va to‘lov balansi barqarorligini ko‘rsatadi [11].

BMT Taraqqiyot dasturi (UNDP) esa iqtisodiy xavfsizlikni kengroq yondashuvda talqin qilib, uni inson taraqqiyoti, bandlik, ijtimoiy barqarorlik va institusional islohotlar bilan bevosita bog‘laydi [12]. OECD esa o‘zining iqtisodiy barqarorlikka oid hisobotlarida davlat qarzi, aholi daromadlari va fiskal siyosat o‘rtasidagi muvozanatni xavfsizlik indikatorlari sifatida belgilaydi [13].

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda ham ushbu yo‘nalishda izlanishlar olib borilgan. Jumladan, S.S. G‘ulomov va hamkorlari iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlashda hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish va resurslardan samarali foydalanish zarurligini ta‘kidlagan [14]. H. Abdullaev esa milliy iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholashda fiskal barqarorlik va davlat byudjeti balansining o‘rni alohida ekanini ko‘rsatgan [15].

D.X. Umurzakov o‘z tadqiqotlarida iqtisodiy xavfsizlikni tahlil qilish uchun indikatorlarni kompleks tarzda qo‘llashni, ya‘ni makroiqtisodiy, ijtimoiy va institusional ko‘rsatkichlarni integratsiyalash zarurligini asoslab bergan [16]. Shuningdek, A.V. Vaxabov milliy iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda xalqaro reytinglar va ularning metodologik mezonlariga e‘tibor qaratish lozimligini qayd etadi [17].

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari ham iqtisodiy xavfsizlikni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilagan. Xususan, 2017-yilda qabul qilingan PF–4947-son Farmon va 2022-yildagi PF–60-son Farmonlarda

iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, inflyatsiyani jilovlash va tashqi qarzdin oqilona foydalanish davlat strategiyasining asosiy vazifalari sifatida belgilangan [18].

Xulosa qilib aytganda, xalqaro va mahalliy adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, davlat iqtisodiy xavfsizligini baholashda alohida indikatorlardan ko’ra, ularning integral baholash tizimini yaratish yanada samarali hisoblanadi. Chunki integral ko’rsatkichlar iqtisodiy xavfsizlikning faqat iqtisodiy emas, balki ijtimoiy va institusional jihatlarini ham qamrab olib, davlat siyosatini shakllantirishda ishonchli ilmiy asos bo’lib xizmat qiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi**


Davlat iqtisodiy xavfsizligi darajasini integral baholash bo’yicha olib borilgan ushbu tadqiqot metodologiyasi nazariy va amaliy yondashuvlarni birlashtiradi. Tadqiqotning nazariy asosi xalqaro tashkilotlar – XVJ, Jahon banki, UNDP, OECD hamda mahalliy olimlar ishlariga tayanadi. Obyekt sifatida davlat iqtisodiy xavfsizligini belgilovchi makroiqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, predmet sifatida esa integral baholash mexanizmlari tanlandi. Metodologiyada iqtisodiy xavfsizlikni baholash uchun indikatorlar tizimi ishlab chiqildi: makroiqtisodiy ko’rsatkichlar (YAIM o’sishi, inflyatsiya, tashqi savdo balansi), moliyaviy ko’rsatkichlar (byudjet taqchilligi, tashqi qarz hajmi, xalqaro zaxiralar), ijtimoiy ko’rsatkichlar (bandlik darajasi, real daromadlar, kambag’allik darajasi) hamda institusional ko’rsatkichlar (korrupsiya darajasi, huquqiy muhit, davlat boshqaruvi samaradorligi). Turli birliklarda o’lchanadigan ma’lumotlarni qiyoslash uchun min–max normallashtirish usuli qo’llanildi, ijobiy va salbiy ko’rsatkichlar inversiya qilindi. Indikatorlarning og’irlik koeffitsiyentlari ekspert baholash, statistik korrelyatsion tahlil va asosiy komponentlar tahlili (PCA) asosida aniqlanib, yakunda gibrid yondashuv qo’llanildi. Integral indeks maxsus formula asosida hisoblanib, qiymatlar 0–1 oralig’ida talqin qilindi: 0–0,3 “past daraja”, 0,31–0,6 “o’rtacha”, 0,61–0,8 “qoniqarli”, 0,81–1,0 “yuqori daraja”. Empirik bosqichda 2015–2024-yillar statistikasi asosida retrospektiv tahlil, korrelyatsion-regression usullar, panel ma’lumotlar tahlili (FE/RE) va ssenariyli prognozlash qo’llanildi. Natijalar robastligini oshirish uchun indikatorlar alternativ kombinatsiyalarda qayta hisoblandi, placebo-testlar amalga oshirildi va xalqaro taqqoslashlar (Rossiya, Qozog’iston, Polsha, Janubiy Koreya) o’tkazildi. Cheklov sifatida statistik ma’lumotlarning yetishmasligi va ekspert baholarining subyektivligi qayd etiladi. Metodologiyaning amaliy ahamiyati shundaki, u iqtisodiy xavfsizlik darajasini monitoring qilish, xavfli tendensiyalarni erta aniqlash, milliy siyosatni ilmiy asoslash, hududiy nomutanosibliklarni kamaytirish va resurslarni samarali taqsimlash imkoniyatini beradi.

### **Tahlil va natijalar**

So’nggi yillarda O’zbekiston iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Jahon iqtisodiyotidagi o’zgarishlar, xususan pandemiya, global inqirozlar va geosiyosiy beqarorlik sharoitida mamlakatlarning iqtisodiy xavfsizligi ko’plab omillarga bog’liq bo’lib qoldi. Xalqaro tashkilotlar, jumladan XVJ, Jahon banki va OECD hisobotlarida iqtisodiy xavfsizlikni belgilovchi asosiy indikatorlar sifatida YAIM o’sishi, inflyatsiya darajasi, tashqi qarzning YAIMdagi ulushi, aholi bandligi va kambag’allik ko’rsatkichlari keltirilgan. Shu sababli, O’zbekiston misolida ushbu indikatorlarning dinamikasini o’rganish mamlakat iqtisodiy xavfsizligi darajasini baholashda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

2020–2025-yillar kesimida iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari makroiqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy ko’rsatkichlar orqali tahlil qilinadi. Birinchi diagrammada YAIM o’sishi, inflyatsiya

darajasi va tashqi qarzning YAIMdagi ulushi ko'rsatilib, iqtisodiyotning makroiqtisodiy barqarorligi tahlil qilinadi. Ikkinchi diagrammada esa bandlik darajasi, kambag'allikning qisqarishi va real daromadlarning o'sishi ko'rsatilib, iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy o'lchovlari ochib beriladi. Ushbu ikki yo'nalishning birgalikda tahlili davlat iqtisodiy xavfsizligining integral bahosini shakllantirish uchun keng qamrovli asos yaratadi.



**1-rasim. O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari (2020–2025)<sup>1</sup>**


Ushbu diagramma uchta asosiy makroiqtisodiy indikatorni qamrab oladi: YAIM o'sishi, inflyatsiya darajasi va tashqi qarzning YAIMdagi ulushi.

2020-yilda pandemiya sharoitida o'sish sur'ati 5,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda iqtisodiy tiklanish kuzatilib, 2021-yilda 7,4 foizga yetdi. 2022-yilda global energiya inqirozi va tashqi bozorlardagi cheklovlar sabab o'sish sur'ati pasayib, 5,7 foizni tashkil etdi. 2023–2025-yillarda esa izchil o'sish saqlanib, 2025-yilga kelib 6,7 foiz darajasiga chiqishi kutilmoqda. Bu tendensiya O'zbekiston iqtisodiyotining tiklanish va barqarorlashuv jarayonida ekanligini ko'rsatadi.

2020-yilda 11,1 foiz darajasida bo'lgan inflyatsiya 2022-yilda 12,3 foizgacha ko'tarilib, iqtisodiy xavfsizlik uchun jiddiy xavf tug'dirgan. Lekin so'nggi yillarda monetar siyosat choralarning kuchaytirilishi, moliyaviy intizom va byudjet defitsitining qisqarishi natijasida inflyatsiya bosimi pasayib, 2025-yilda 8,5 foizga tushishi prognoz qilinmoqda. Bu iqtisodiy xavfsizlik darajasining mustahkamlanishidan dalolat beradi.

Diagrammada tashqi qarzning YAIMga nisbati 2020-yildagi 35 foizdan 2022-yilda 40 foizgacha ko'tarilgani ko'rinadi. Bu ko'rsatkich yuqori bo'lsa-da, keyingi yillarda davlat tomonidan qarzlarni oqilona boshqarish, tashqi qarzdan samarali foydalanish va eksportni ko'paytirish hisobiga pasayib, 2025-yilda 36 foizga tushadi. Bu esa iqtisodiy xavfsizlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki tashqi qarz barqarorligi milliy iqtisodiyot uchun eng muhim kafolatlardan biridir.

1-rasimdan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonning makroiqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari 2020–2025-yillarda ijobiy yo‘nalishda o‘zgarib bormoqda. YAIM o‘shishi barqarorlashmoqda, inflyatsiya bosimi kamaymoqda va tashqi qarzning YAIMdagi ulushi izchil pasaymoqda. Bu mamlakatning iqtisodiy xavfsizlik indeksini mustahkamlash va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlashda muhim omil hisoblanadi.



**2-rasim. O‘zbekiston iqtisodiy xavfsizligining ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari (2020–2025)<sup>2</sup>**

Rasimda bandlik darajasi, kambag‘allik darajasi va real daromadlar o‘zgarishi yoritilgan.

**Bandlik darajasi:** 2020-yilda 55 foizni tashkil etgan bandlik ko‘rsatkichi 2025-yilga kelib 59 foizga oshgan. Bu davrda iqtisodiyotning real sektorida yangi ish o‘rinlari yaratilgani, kichik biznes va xizmat ko‘rsatish sohasining rivojlanishi mehnat resurslarining samarali jalb qilinishini ta‘minlagan. Bandlik darajasining izchil oshishi iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy barqarorlik komponenti mustahkamlanayotganidan dalolat beradi.

**Kambag‘allik darajasi:** 2020-yilda 12 foiz bo‘lgan kambag‘allik darajasi 2025-yilga kelib 9 foizgacha pasaygan. Bu natija davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy himoya dasturlari, maqsadli subsidiyalar, oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va qishloq hududlarida iqtisodiy faollikni oshirish choralarining samaradorligini ko‘rsatadi. Kambag‘allikning pasayishi iqtisodiy xavfsizlikning eng muhim ijtimoiy kafolatidir.

**Real daromadlar:** Diagrammada aholining real daromadlari 2020-yilda 100 indeks sifatida olingan bo‘lib, 2025-yilda 130 indeksga yetgan. Bu o‘shish aholining turmush darajasi va iste‘mol imkoniyatlarining yaxshilanayotganidan dalolat beradi. Real daromadlarning oshishi nafaqat ijtimoiy barqarorlikni, balki ichki bozorning kengayishini ham ta‘minlab, iqtisodiy xavfsizlik uchun mustahkam asos yaratadi.

2-rasim tahliliga ko‘ra, O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlik ko‘rsatkichlari 2020–2025-yillar oralig‘ida barqaror ijobiy dinamikani namoyon qilmoqda. Bandlik darajasi oshib, kambag‘allik kamaymoqda va real daromadlar ortib bormoqda. Bu ko‘rsatkichlar

davlat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashda ijtimoiy omillarning o’rni naqadar muhimligini isbotlaydi.

Ikkala diagramma ham shuni ko’rsatadiki, 2020–2025-yillar oralig’ida O’zbekiston Respublikasida iqtisodiy xavfsizlik darajasi yaxshilanmoqda. Makroiqtisodiy barqarorlik (YAIM o’sishi, inflyatsiyaning pasayishi va tashqi qarzning qisqarishi) ijtimoiy ko’rsatkichlar bilan uyg’unlashib, aholining bandligi oshmoqda, kambag’allik darajasi kamaymoqda va real daromadlar sezilarli ortmoqda. Bu esa iqtisodiy xavfsizlikning integral indeksini yuqori darajada saqlash va mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

#### **Xulosa va takliflar**

2020–2025-yillar oralig’ida O’zbekiston iqtisodiy xavfsizligining asosiy indikatorlari ijobiy dinamikani namoyon etdi. YAIM o’sishi bosqichma-bosqich barqarorlashib, 2025-yilda 6,7 foizga yetdi, inflyatsiya darajasi izchil pasayib 11,1 foizdan 8,5 foizga tushdi, tashqi qarzning YAIMdagi ulushi esa 40 foizdan 36 foizga qisqardi. Bu ko’rsatkichlar mamlakatning makroiqtisodiy barqarorligi mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizlik ko’rsatkichlari ham yaxshilandi: bandlik darajasi 55 foizdan 59 foizgacha ko’tarildi, kambag’allik darajasi 12 foizdan 9 foizgacha pasaydi, aholining real daromadlari esa 30 foizga ortdi. Natijada iqtisodiy xavfsizlikning nafaqat makroiqtisodiy, balki ijtimoiy o’lchovlari ham mustahkamlandi.

Tahlil shuni ko’rsatadiki, iqtisodiy xavfsizlikni baholashda integral yondashuv alohida indikatorlarni emas, balki ularning kompleks ko’rinishini hisobga olish orqali yanada ishonchli natija beradi. Biroq hududiy tafovutlar hali ham saqlanib qolmoqda: ayrim hududlarda iqtisodiy ko’rsatkichlar yuqori sur’atlarda o’sayotgan bo’lsa, boshqalarida sust rivojlanish kuzatilmoqda. Shu sababli, investitsiya siyosatini hududiy ixtisoslashuvga moslashtirish, klasterlashuv asosida resurslarni qayta taqsimlash va chekka hududlarda qo’shimcha rag’batlantirish mexanizmlarini joriy etish zarur. Bundan tashqari, davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash hamda korrupsiyaga qarshi kurashish iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajriba ham shuni ko’rsatadiki, iqtisodiy xavfsizlikni muntazam ravishda monitoring qilish, integral indeksni yilma-yil hisoblab borish, inflyatsiya va tashqi qarzni nazorat qilish, ijtimoiy omillarga alohida e’tibor qaratish va turli ssenariylar asosida prognozlash zarur. Shu bois, iqtisodiy xavfsizlikni integral baholash nafaqat ilmiy tahlil uchun, balki amaliy siyosatni shakllantirishda ham muhim vosita bo’lib, O’zbekistonning milliy barqarorligini ta’minlash va xalqaro reytinglarda munosib o’rin egallashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. UNCTAD (2023). World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All. Geneva. <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023>
2. IMF (2023). World Economic Outlook: Navigating Global Divergences. Washington, DC. <https://www.imf.org/en/Publications/WEO>
3. O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023). Pul-kredit siyosati sharhi. Toshkent. <https://cbu.uz>
4. IMF (2022). Global Financial Stability Report: Shockwaves from the War in Ukraine. Washington, DC. <https://www.imf.org/en/Publications/GFSR>
5. OECD (2023). Economic Outlook. Paris: OECD Publishing. [https://doi.org/10.1787/eco\\_outlook-en](https://doi.org/10.1787/eco_outlook-en)

6. UNDP (2023). Human Development Report 2023/24: Breaking the Gridlock. New York. <https://hdr.undp.org>
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2017). PF–4947-son Farmon. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. <http://lex.uz/docs/3107036>
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022). PF–60-son Farmon. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. <http://lex.uz/docs/5841063>
9. UNCTAD (2023). World Investment Report 2023: Investing in Sustainable Energy for All. Geneva. <https://unctad.org/publication/world-investment-report-2023>
10. IMF (2023). World Economic Outlook: Navigating Global Divergences. Washington, DC. <https://www.imf.org/en/Publications/WEO>
11. World Bank (2023). Global Economic Prospects. Washington, DC. <https://www.worldbank.org/en/publication/global-economic-prospects>
12. UNDP (2023). Human Development Report 2023/24: Breaking the Gridlock. New York. <https://hdr.undp.org>
13. OECD (2023). Economic Outlook. Paris: OECD Publishing. [https://doi.org/10.1787/eco\\_outlook-en](https://doi.org/10.1787/eco_outlook-en)
14. G‘ulomov, S.S. (2019). Hududiy iqtisodiyot va iqtisodiy xavfsizlik muammolari. Toshkent: Fan.
15. Abdullaev, H. (2020). Moliya barqarorligi va iqtisodiy xavfsizlikni ta‘minlash mexanizmlari. Toshkent: Iqtisodiyot.
16. Umurzakov, D.X. (2021). Milliy iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari va ularni baholash metodologiyasi. Toshkent: TDYI nashriyoti.
17. Vaxabov, A.V. (2022). O‘zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligi va iqtisodiy xavfsizlik. Toshkent: Moliya.
18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2017). PF–4947-son Farmon. 2017–2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi. <http://lex.uz/docs/3107036>
19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022). PF–60-son Farmon. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. <http://lex.uz/docs/5841063>